Abdulla Mirzo



Abdulla Mirzo

(1433-1451)

(1450-1451)

Movarounnahr hukmdori (1450-1451). Temuriylardan. ***Ulug‘bek***ning ukasi ***Ibrohim Mirzo***ning kenja o‘g‘li. Otasi vafotidan so‘ng, Fors viloyatiga hokim qilib tayinlangan. Biroq u hali yosh bo‘lgani sababli davlat ishlarini onasi ***Ruqiya begim*** bilan otabek ***Shamsiddin Sheroziy*** boshqargan. 1447 yil amakivachchasi ***Sulton Muhammad Mirzo*** Fors viloyatini bosib olgach, Hirotga qochib kelgan. 1448 yilda esa amakasi ***Ulug‘bek***ning xizmatiga kirib, uning qiziga uylangan. ***Abdullatif***dan keyin Movarounnahr taxtiga o‘tirgan. Ammo toju taxt da’vogari ***Sulton Abu Said*** Mirzoga qarshi jangda halok bo‘lgan.

2023-10-30 00:09:24